

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

ABDULLAYEV SARDORBЕК KADAMOVICH

**BOLALARDA BRONXIAL ASTMANING ALLERGIK RINIT VA ATOPIK
DERMATIT BILAN KOMORBIDLİK FENOTIPLARINING KLINIK-
IMMUNOLOGIK VA BIOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI**

14.00.09 – Pediatriya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 616.248:616.211:616.5–002–056.3:612.017.1–053.2–078–036

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Abdullayev Sardorbek Kadamovich

Bolalarda bronxial astmaning allergik rinit
va atopik dermatit bilan komorbidlik
fenotiplarining klinik-immunologik
va biokimyoviy xususiyatlari..... 3

Абдуллаев Сардорбек Кадамович

Клинико-иммунологические и биохимические
особенности фенотипов коморбидности бронхиальной
астмы с аллергическим ринитом и атопическим
дерматитом у детей 28

Abdullaev Sardorbek Kadamovich

Clinical-immunological and biochemical features
of phenotypes of comorbidity of bronchial asthma
with allergic rhinitis and atopic dermatitis in children 52

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works 57

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

ABDULLAYEV SARDORBЕК KADAMOVICH

**BOLALARDA BRONXIAL ASTMANING ALLERGIK RINIT VA ATOPIK
DERMATIT BILAN KOMORBIDLİK FENOTIPLARINING KLINIK-
IMMUNOLOGIK VA BIOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI**

14.00.09 – Pediatriya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tib3544 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent tibbiyot akademiyasida tayyorlandi.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tashpmi.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shamsiev Furqat Muxitdinovich**
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Aliev Axmadjon Lutfullaevich**
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Nabieva Umida Pulatjanovna
tibbiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi “_____” _____ 2025 yil bo‘lib o‘tadi. soat _____ da Toshkent pediatriya tibbiyot institutida DSc.04/30.12.2019.29.01 Ilmiy kengash majlisida (Manzil: 100140, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-bino. Tel./faks: (+99871) 262-33-14, e-mail: mail@tashpmi.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro‘yxat raqami _____). (Manzil: 100140, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel.: (+99871) 262-33-14.).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____ yuborilgan.
 (“_____” _____ 2025 yil _____-sonli pochta protokoli reestri).

A.V. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

X.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, tibbiyot fanlari doktori

K.N. Xaitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘ngi yillarda allergik kasalliklar holatlari soni ortib bormoqda. Bronxial astma (BA) bolalarda nafas yo‘llarining surunkali, nospetsifik yallig‘lanishiga olib keladigan eng keng tarqalgan allergik kasalliklardan biri hisoblanadi. Bolalar o‘rtasida allergik kasalliklar (AK) bilan bog‘liq nogironlik darajasi asosan bronxial astma hisobidan yuzaga keladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra «...hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘ylab taxminan 350 million kishi bronxial astmadan aziyat chekadi, ulardan 14 foizini bolalar tashkil etadi. 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 400 million kishiga yetishi kutilmoqda...»¹. Ushbu holatlar bronxial astmani global tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi va uni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Bolalarda bronxial astma (BA) terapiyasining asosiy maqsadi kasallik simptomlarini to‘liq nazorat qilishga erishish shuningdek, kasallikning zo‘rayishi va kelajakda salbiy oqibatlar rivojlanish xavfini kamaytirishdan iborat.

Jahonda BA ni davolash bo‘yicha mavjud bo‘lgan ko‘plab xalqaro tavsiyalar, konsensus hujjatlari va yuqori samarali dori vositalari bo‘lishiga qaramay, amaliyotda ko‘p hollarda kasallik ustidan to‘liq nazoratga erishilmagan. Buning sababi sifatida doimiy qo‘zg‘atuvchi omillarning ta‘siri yoki asosiy kasallik kechishini og‘irlashtiradigan va bemorda multimorbid fenotip shakllanishiga olib keladigan nazorat qilinmagan komorbid allergik patologiyalar qayd etiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar orasida BA bilan birga uchraydigan komorbid allergik patologiyalar 25–40% ni tashkil etadi va bu holat kasallik ustidan barqaror nazoratga erishishda jiddiy muammolar tug‘diradi. Ushbu guruhdagi bemorlarda hayot sifati izchil ravishda yomonlashadi, kasallikning og‘ir kechish ehtimoli va nogironlik rivojlanish xavfi ortadi.

Mamlakatimizda ayni paytda sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, kasalliklarga erta tashxis qo‘yish, davolash va oldini olish sohasida tibbiyot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha faol ishlar amalga oshirilmoqda. Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun «...oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalar uchun sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatish, shuningdek, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar qo‘yilmoqda...»². Bu borada bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan birga komorbid kechuvchi bolalarda klinik-immunologik, biokimyoviy va mikroelementli xususiyatlarini aniqlash ayniqsa muhimdir. Bu esa kasallikni zamonaviy va samarali diagnostika qilish hamda davolash uslublarini ishlab chiqish uchun muhim hisoblanadi.

¹ <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/asthma>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

Mazkur dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni, 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5590-sonli Farmoni hamda 2021-yil 29-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5199-sonli Qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida BA ning komorbid patologiya (KP), jumladan allergik rinit (AR) bilan birgalikda uchrashi 78–84% holatni tashkil qilishi, atopik dermatit (AtD) bilan esa 15–20% holatda uchrashini ko‘rsatadi. BA, AR va AtD ning birga komorbid uchrashi BA yanada og‘ir kechishiga olib kelib, kasallikni tashxislash, davolash va optimal davolash rejimlarini tanlashni murakkablashtiradi (Tatochenko V.K., 2022; Chuchalin A.G., 2020; Casciano J., Krishnan J., 2023). Hozirgi vaqtda tadqiqotlar sonining ko‘pligiga qaramay, BA va KP bilan og‘rigan bolalarda klinik va anamnestik ma‘lumotlarni har tomonlama o‘rganish, rivojlanish xavfining eng yuqori bo‘lgan omillarini aniqlash, shuningdek, immunologik va biokimyoviy xususiyatlarni tadqiq qilish orqali erta terapevtik aralashuvni amalga oshirish dolzarb va zarur hisoblanadi (Buynova S.N., 2022; Bousquet J., 2021; Compalati E., 2020; Astafyeva N.G., 2015).

MDH davlatlari olimlari tomonidan ham BA ning AR va AtD bilan birga komorbid kechishi o‘rganilgan. Biroq amaliy sog‘liqni saqlash sohasida BA ning KP bilan birga davolashning terapevtik xususiyatlari to‘g‘risida zarur ma‘lumotlar yo‘q, bu esa bemorlarni davolashning samarasizligiga olib keladi va kasallikning prognozi va bemorning hayotiga sezilarli ta‘sir qiladi (Molokova A.V., 2022; Zelenskaya V.V., 2020; Gurtovaya N. M., 2019).

O‘zbekiston olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham bolalar o‘rtasida astma va allergiya simptomlari tarqalishining ortishi qayd etilgan bo‘lib, bu butun dunyoda bronxial astma bilan kasallanish ko‘rsatkichining oshib borishi bilan tasdiqlanadi: 6–7 yoshdagi bolalarda bu ko‘rsatkich 11,1–11,6%, 13–14 yoshli o‘smirlarda esa 13,2–13,7% ni tashkil qiladi (Mirrahimova M.X., 2022; Shamansurova E.A., 2020). BA bilan KP birga kechishida klinik ko‘rinishini rivojlanishida turli omillar ishtirok etadi, ular orasida immun reaksiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan erkin radikal oksidlanishning biokimyoviy jarayonlari va mikroelementlar holatining buzilishi alohida rol o‘ynaydi. (Shamsiev F.M., 2023; Xaitova N.M., 2021).

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasi bolalarda BA ning AR va AtD bilan komorbidlik fenotiplarining klinik, immunologik, biokimyoviy va

mikroelement xususiyatlarini o'rganish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent tibbiyot akademiyasining №012300281 «Ona va bola salomatligining tibbiy-ijtimoiy muammolari. Tashxislash, bashoratlash, davolash va oldini olish masalalarining yechimini topish» (2023-2027yy) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalarda bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan birga kechishining turli fenotiplarida klinik, immunologik, biokimyoviy va mikroelement o'zgarishlarning xususiyatlarini o'rganish hamda kompleks yondashuv va differensial davolash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalarda bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbid shaklining uchrash darajasini, klinik belgilari xususiyatlarini hamda ularni shakllantiruvchi xavfli omillarini aniqlash;

bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbid kechuvchi bolalarda immun holatini, pro- va yallig'lanishga qarshi sitokinlar ko'rsatkichlarini baholash;

bolalarda bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbid kechuvchi shaklida mikroelementlar ta'sirini va rolini baholash;

bolalarda bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbid kechuvchi shaklida D vitaminining ta'sirini va rolini baholash;

bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbid kechuvchi bolalarni davolashda kompleks yondashuv va differensial davolash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida 2021-2024 yillar davomida RIPIATM pulmonologiya va allergologiya bo'limida 5 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 155 nafar bemorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida venoz qon va qon zardobi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda umumiy klinik, biokimyoviy, immunologik, funksional va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini keltirib chiqaruvchi xavfli omillar sifatida peri- va intranatal davrlarning nojo'ya kechishi, kasallikka nasliy moyilligi, yondosh va o'tkazgan kasalliklar, allergik kasalliklar mavjudligi, passiv chekish, bolani sun'iy ovqatlantirish ekanligi isbotlangan;

bronxial astmaning komorbid shaklida immun tizimning holati, pro- va yallig'lanishga qarshi sitokinlar CD3+, CD4+, CD8+ limfotsitlarining 1,65, 2,3 va 1,7 martaga kamayishi; IgE ning 2,23 martadan ko'proq oshishi, IL-8 5,6 marta, IL-4 8,4 marta, TNF- α 3,8 marta ortdi; INF γ 2,2 marta kamayishi (P<0,001) isbotlangan;

bronxial astma va komorbid patolgiyalar bilan birga og'rigan bolalarda rux (Zn) va selen (Se) darajalari 3 barobar past (P<0,001), mis (Cu) va temir (Fe)

darajalari esa 1,6 martaga yuqori ($R < 0,001$) ekanligi aniqlanib, korrelyasion tahllda Se ($r = +0,8$), Zn ($r = +0,71$), Cu ($r = +0,73$) va Fe ($r = -0,91$) bevosita ishtirok etuvchi immunologik ko'rsatkichlar bilan yuqori darajada bog'liqligi isbotlangan;

bronxial astma va komorbid patologiyalar bilan birga og'riq bolalarda D vitaminining darajasi 2,14 martaga past bo'lib ($P < 0,001$), kasallik xurujlarining soni, davomiyligi shuningdek hujayraviy va gumoral immunitet holati D vitaminining darajasi bilan to'g'ri korrelyasiya aniqlanib, mustaqil xavf omili ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kasallikning klinik-anamnestik, funksional, immunologik, biokimyoviy va mikroelementar jihatlarini chuqur o'rganish asosida bolalarda bronxial astma va komorbid patologiyalar shakllanishining xavf omillarini erta aniqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliy sog'liqni saqlash tizimiga joriy etildi. Bu tavsiyalar shuningdek kasallikni samarali boshqarish va davolash taktikalarini takomillashtirishga asoslangan;

tibbiyot muassasalarida qo'llash uchun BA va KP bilan og'riq bolalar uchun davolash usullari ishlab chiqildi, ularga polivitamin va mikroelement komplekslari hamda D vitaminini saqlovchi preparatlar kiritilishga asoslangan;

ilmiy asoslangan differensial davolash yondashuvlari ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar kasallikning klinik kechishiga, biokimyoviy va immunologik ko'rsatkichlariga hamda bolalarning funksional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Amaliyotda bu yondashuvlarning qo'llanilishi bronxial astma xurujlarining qaytalanishi, davomiyligini kamaytirish, uzoq muddatli remissiyaga erishish hamda og'ir asoratlar va salbiy oqibatlarining oldini olishga asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy yondoshuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, bemorlar sonining yetarli ekanligi, statistik tekshirish usullari yordamida ishlov berilganligi va tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning nazariy tibbiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi, chunki u bolalarda BA ning komorbid shakllari patogenezi chuqurroq anglashga xizmat qilib, bunga klinik-funksional, biokimyoviy va immunologik ko'rsatkichlar asosida kasallik mexanizmlarini tahlil qilish orqali erishiladi va respublikamizda ushbu yo'nalishda olib boriladigan yanada chuqur ilmiy izlanishlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratib, tadqiqotda olingan natijalar qo'shimcha diagnostik mezonlar sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu esa bolalarda BA ni davolash strategiyalarini takomillashtirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati BA va komorbid patologiyalar bilan og'riq bolalarni davolash uchun vitamin-mineral komplekslari va D vitamini asosidagi differensial yondashuvlarga asoslangan muolaja usullarini ishlab chiqish va taklif etish bilan namoyon bo'lib, D vitaminining va vitamin-mineral

komplekslarini kompleks terapiyaga kiritish kasallikning klinik kechishiga, biokimyoviy, immunologik va funksional ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatli remissiyaga erishish, xurujlar chastotasini kamaytirish hamda BA ning komorbid shaklini yengilroq kechishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalarda bronxial astmaning allergik rinit va atopik dermatit bilan komorbidlik fenotiplarining klinik-immunologik va biokimyoviy xususiyatlarini erta aniqlash hamda tashxislash va davolashni yaxshilash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini keltirib chiqaruvchi xavfli omillar sifatida peri- va intranatal davrlarning nojo'ya kechishi, kasallikka nasliy moyilligi, yondosh va o'tkazgan kasalliklar, allergik kasalliklar mavjudligi, passiv chekish, bolani sun'iy ovqatlantirish, ekanligi isbotlanganligi, 2024 yil 28 oktyabrdagi №89-son buyrug'iga muvofiq Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining va 2024 yil 25 oktyabrdagi №244-son buyrug'iga muvofiq Toshkent viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining amaliyotiga joriy etilgan. (Sog'liqni Saqlash Vazirligi ilmiy-texnik Kengashining 2025 yil 15-yanvardagi №11/41-son xulosasi). **Ijtimoiy samaradorligi:** bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini keltirib chiqaruvchi xavfli omillar sifatida peri- va intranatal davrlarning nojo'ya kechishi, kasallikka nasliy moyilligi, yondosh va o'tkazgan kasalliklar, allergik kasalliklar mavjudligi, passiv chekish, bolani sun'iy ovqatlantirish ekanligi aniqlanib, ularni o'z vaqtida aniqlash terapiya sifatini yaxshilash, kasallikning og'ir kechishi va jiddiy asoratlarni rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini keltirib chiqaruvchi xavfli omillarni aniqlash asosida tashxislash va davolash sxemasi ishlab chiqilgan. Ushbu sxemani joriy etishdan olingan iqtisodiy effekt 98000 so'mni tashkil etdi, 65 nafar bemor uchun 6370000 so'm miqdorida tejashga erishilgan. **Xulosa:** bolalarda bronxial astmani komorbid shaklini tashxislash va davolash uchun ishlab chiqilgan sxemasidan foydalanish 1 ta bemor hisobidan 98000 so'm byudjet mablag'lari va 98000 so'm byudjetdan tashqari mablag'larni tejashga imkon bergan;

ikkinchi ilmiy yangilik: bronxial astmaning komorbid shaklida immun tizimning holati, pro- va yallig'lanishga qarshi sitokinlar CD3+, CD4+, CD8+ limfotsitlarining 1,65, 2,3 va 1,7 martaga kamayishi; IgE ning 2,23 martadan ko'proq oshishi, IL-8 5,6 marta, IL-4 8,4 marta, TNF- α 3,8 marta ortdi; INF γ 2,2 marta kamayishi (R<0,001) isbotlanganligi 2024 yil 28 oktyabrdagi №89-son buyrug'iga muvofiq Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining va 2024 yil 25 oktyabrdagi №244-son buyrug'iga muvofiq Toshkent viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining amaliyotiga joriy etilgan. (Sog'liqni Saqlash Vazirligi ilmiy-texnik Kengashining 2025 yil 15-yanvardagi №11/41-son xulosasi). **Ijtimoiy samaradorligi:** tekshirilgan bolalarda hujayrali va gumoral immunitetdagi CD3+, CD4+, CD8+ limfotsitlarining ishonchli kamayishi; IgE ning oshishi, sitokin holatida IL-8, IL-4, TNF- α ; INF γ sezilarli o'zgarishi bolalarda bronxial astmaning komorbid kechishining shakllanishida nojo'ya prognostik mezon bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash klinik jihatdan ijobiy natijalar beradi, davolash sifatini oshiradi va

bolalarda ushbu kasalliklarni tashxislashda ma'lumot beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** immunologik tadqiqotlar natijalari asosida bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini tashxislash va davolash sxemasi ishlab chiqilgan. Ushbu sxemani joriy etishdan olingan iqtisodiy effekt 98000 so'mni tashkil etdi, 65 nafar bemor uchun 6370000 so'm miqdorida tejashga erishilgan.

Xulosa: bolalarda bronxial astmani komorbid shaklini tashxislash va davolash uchun ishlab chiqilgan sxemasidan foydalanish 1 ta bemor hisobidan 98000 so'm byudjet mablag'lari va 98000 so'm byudjetdan tashqari mablag'larni tejashga imkon bergan;

uchinchi ilmiy yangilik: bronxial astma va komorbid patolgialar bilan birga og'riq bolalarda rux (Zn) va selen (Se) darajalari 3 barobar past ($R < 0,001$), mis (Cu) va temir (Fe) darajalari esa 1,6 martaga yuqori ($R < 0,001$) ekanligi aniqlanib, korrelyasion tahlil Se ($r = +0,8$), Zn ($r = +0,71$), Cu ($r = +0,73$) va Fe ($r = -0,91$) bevosita ishtirok etuvchi immunologik ko'rsatkichlar bilan yuqori darajada bog'liqligi isbotlanganligi 2024 yil 28 oktyabrdagi №89-son buyrug'iga muvofiq Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining va 2024 yil 25 oktyabrdagi №244-son buyrug'iga muvofiq Toshkent viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining amaliyotiga joriy etilgan. (Sog'liqni Saqlash Vazirligi ilmiy-texnik Kengashining 2025 yil 15-yanvardagi №11/41-son xulosasi).

Ijtimoiy samaradorligi: komorbid kechuvchi bronxial astma bilan kasallangan bolalarda rux va selen miqdorining ishonchli pasayishi, mis va temir miqdorining oshishi, korrelyasion tahlil natijalari bilan tasdiqlanib, mikroelementlarning immunologik ko'rsatkichlariga, bronxlardagi allergik yallig'lanish uchun mas'ul bo'lgan omillar bilan yuqori darajada o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi, bu kasallikni shakllanishida yana bitta nojo'ya prognostik mezon bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash klinik jihatdan ijobiy natijalar beradi, davolash sifatini oshiradi va bolalarda ushbu kasalliklarni tashxislashda ma'lumot beradi.

Iqtisodiy samaradorligi: mikroelementlar tekshirishidan olingan natijalar asosida bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini tashxislash va davolash sxemasi ishlab chiqilgan. Ushbu sxemani joriy etishdan olingan iqtisodiy effekt 98000 so'mni tashkil etdi, 65 nafar bemor uchun 6370000 so'm miqdorida tejashga erishilgan.

Xulosa: bolalarda bronxial astmani komorbid shaklini tashxislash va davolash uchun ishlab chiqilgan sxemasidan foydalanish 1 ta bemor hisobidan 98000 so'm byudjet mablag'lari va 98000 so'm byudjetdan tashqari mablag'larni tejashga imkon bergan;

to'rtinchi ilmiy yangilik: bronxial astma va komorbid patologiyalar bilan birga og'riq bolalarda D vitaminining darajasi 2,14 martaga past bo'lib ($R < 0,001$), kasallik xurujlarining soni, davomiyligi shuningdek hujayraviy va gumoral immunitet holati D vitaminining darajasi bilan to'g'ri korrelyasiya aniqlanib, mustaqil xavf omili ekanligi isbotlanganligi, 2024 yil 28 oktyabrdagi №89-son buyrug'iga muvofiq Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining va 2024 yil 25 oktyabrdagi №244-son buyrug'iga muvofiq Toshkent viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining amaliyotiga joriy etilgan. (Sog'liqni Saqlash Vazirligi ilmiy-texnik Kengashining 2025 yil 15-yanvardagi №11/41-son xulosasi).

Ijtimoiy samaradorligi: bronxial astma va komorbid patologiyalar bilan kasallangan bolalarda D vitamini tarkibining sezilarli darajada kamayishi bolalarda kasallikni

nojo'ya kechishining prognostik mezon bo'lib, uni o'z vaqtida aniqlash klinik jihatdan ijobiy natijalar beradi, davolash sifatini oshiradi va bolalarda ushbu kasalliklarni tashxislashda ma'lumot beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** D vitamini tarkibini tekshirishidan olingan natijalar asosida bolalarda bronxial astmaning komorbid shaklda kechishini tashxislash va davolash sxemasi ishlab chiqilgan. Ushbu sxemani joriy etishdan olingan iqtisodiy effekt 98000 so'mni tashkil etdi, 65 nafar bemor uchun 6370000 so'm miqdorida tejashga erishilgan. **Xulosa:** bolalarda bronxial astmani komorbid shaklini tashxislash va davolash uchun ishlab chiqilgan sxemasidan foydalanish 1 ta bemor hisobidan 98000 so'm byudjet mablag'lari va 98000 so'm byudjetdan tashqari mablag'larni tejashga imkon bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta ilmiy anjumanda, jumladan 1 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 1 ta horijiy jurnallarda, 1 ta uslubiy tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda olib borilayotgan tadqiqotning muhimligi va dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari asoslanadi, ob'ekt va predmet tavsiflanadi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi, tadqiqotning asosiy yo'nalishlari belgilab beriladi. tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishiga muvofiq tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish haqida ma'lumot beradi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida "**Bolalarda bronxial astmaning komorbid kechishi muammosining zamonaviy jihatlari**" Bolalarda BAning AR va AtD bilan birga komorbid kechadigan patologiyalar zamonaviy tushunchasini tahlil qiladigan adabiyotlarni ko'rib chiqish va immunologik xususiyatlarni ochib berish. Bronx - o'pka patologiyaning rivojlanishida mikroelementlar (ME) va vitamin D (VD) ning ishtiroki va bolalarda BA bilan KP patogenezining asosiy aloqalari tasvirlangan. Bolalarda BA tashxisi va davolashning zamonaviy usullari bo'yicha yangi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "**Klinik materialning tavsifi, bronxial astmaning bolalarda komorbid patologiyalar bilan birga kechishini o'rganish usullari**" materiallar va tadqiqot usullari keltirilgan.

2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi RIPIATM pulmonologiya bo'limida statsionarda davolanayotgan 2392 nafar bronxopulmoner patologiya bilan kasallangan bolalarning kasallik tarixini

retrospektiv tahlil qilish asosida 18,02% (431) bolalarga bronxial astma (BA) tashxisi qo'yilgan, ulardan 24,1% (104) BA bilan AR, 29% (125) – BA bilan AtD, 18,3% (79) - BAning AR va AtD bilan og'rigan bolalar (BA bilan KP); Boshqa allergopatologiya bilan birgalikda BA 5,2% (22), allergopatologiyasiz BA 23,4% (101) ni tashkil etdi.

5 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 155 nafar bolada istiqbolli chuqur tadqiqot o'tkazildi, ulardan 41,9% (65) bemorlarda BAning AR va AtD bilan birga KP tashxisi qo'yilgan, o'rtacha og'irlik (I guruh), 38,7% (60) bemorlarga KPsiz, o'rtacha og'irlikdagi BA tashxisi qo'yilgan (II guruh); taqqoslash guruhi 30 (19,3%) O'OB bilan og'rigan bolalardan iborat. Nazorat guruhi (NG) xuddi shu yoshdagi 20 nafar amaliy sog'lom bolalardan iborat edi.

Tadqiqotda biz klinik, anamnestic, immunologik, biokimyoviy, funktsional va statistik tadqiqot usullaridan foydalandik:

- klinik tekshiruvda shikoyatlar va anamnez, shu jumladan homiladorlik va tug'ish jarayoni, ovqatlanishning tabiati, 1 yoshgacha bo'lgan oldingi kasalliklarning mavjudligi, turli patologiyalarga genetik moyillik, hayotidagi kasalliklar, allergiya tarixi, oila a'zolarining surunkali kasalliklari, ota-onalarning chekishi va boshqa omillar va kasalxonaga yotqizish paytida klinik belgilarni baholash bilan bolalarning umumiy holati to'liq o'rganildi.

- immunologik tadqiqot usuli bilan limfotsitlarni miqdoriy aniqlashni "CD3+-, CD4+-, CD8+-, CD16+-, CD20+ limfotsitlar uchun monoklonal antikorlardan foydalanib, to'g'ri rozetka hosil qilish usuli" bo'yicha Garib F.Yu. metodikasi orqali amalga oshirildi. Ishda Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi (Moskva) Immunologiya instituti tomonidan ishlab chiqarilgan monoklonal antikorlar ishlatilgan. Periferik qon plasmasida A, G, M immunoglobulinlarini aniqlash "oddiy radial immunodiffuziya usuli G. Manchini va boshqalar" metodikasi bo'yicha o'tkazildi. Sitokinlar konsentratsiyasini: IL-4, IL-8, TNF- α , IFN γ esa Cytokin MChJ (Sankt-Peterburg yuqori sof biologik mahsulotlar ilmiy-tadqiqot instituti) reaktivlari to'plamidan foydalangan holda ELISA usuli bilan aniqlangan. Immunologik tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Immunologiya va inson genomika instituti (direktori, tibbiyot fanlari doktori, akademik T.U. Aripova) tomonidan amalga oshirildi.

- biokimyoviy tekshiruvlar:

1) Se, Zn, Br, Cr, Fe, Sb, I, Hg, Co, Cu, Rb bolalarning qonidagi shaklli elementlarda neytron-aktivatsion tahlil usuli orqali Perkin Elmer (AQSH) spektrofotometrda amalga oshirildi. Kasallangan bolalardan qon namunasi tizza venasidan toza trubkaga olinadi. Sentrifugalash yordamida zardob va qoldiqqa ajratilib, keyin quritiladi. Namunalar neytron reaktorida nurlandi, shundan so'ng aniqlangan izotoplarning induksiyalangan gamma faolligi o'lchandi: selen, ruh, simob, kobalt, yod, surma, xrom, temir, kobalt, rubidiy, brom. Qon hujayralari tarkibidagi mikroelementlarning miqdori IBM tizimiga asoslangan GENIE 2000 dasturiy ta'minotiga ega o'lchash uskunasi bilan germaniy-litiy detektorida aniqlandi. Namuna olish, namuna tayyorlash va o'lchash ishlari Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) talablariga muvofiq amalga oshirildi. Tadqiqot O'zR

SSV RIPIATM ning biokimyoviy laboratoriyasida (laboratoriya mudiri – tibbiyot fanlari doktori, prof. A.N.Aripov) amalga oshirildi.

2) D vitaminini darajasini o'rganish (25 - gidroksikalsiferol) immunoferment analiz yordamida, O'zR SSV RIPIATM ning biokimyoviy laboratoriyasida (laboratoriya mudiri – tibbiyot fanlari doktori, prof. A.N.Aripov) amalga oshirildi.


- funksional tadqiqotlar kompyuterli spirometriya yordamida O'zR SSV RIPIATMning pulmonologiya bo'limida tibbiyot fanlari doktori, prof. F.M.Shamsiev rahbarligida amalga oshirildi, Schiller Spirovit SP-1 asbob-uskunalar yordamida (normalar Spiro PC software 1.5.0.0. dasturiy ta'minoti asosida belgilandi).

- statistik usullar: barcha tadqiqot usullaridan olingan natijalar Microsoft Office Excel-2016 dasturiy ta'minot to'plamida parametrik va parametrik bo'lmagan usullardan foydalangan holda to'liq statistik ishlov berishdan o'tkazildi, o'rtacha arifmetik va uning standart xatosini ($M \pm m$), o'rtacha kvadratik og'ish (σ), nisbiy qiymatlar (daraja, %) hisoblandi.

Statistik ahamiyatlilik (P) bilan, xatolik ehtimoli Student (t) testi bilan hisoblangan. Statistik og'ishlarning ahamiyati quyidagi darajalar bilan aniqlangan: "yuqori – $P < 0,001$, o'rtacha – $P < 0,01$, past (chegara) – $P < 0,05$, ahamiyatsiz (yolg'on) – $P > 0,05$ ". Korrelyatsion tahlil Spirmen (Rs) va Pearson (r) metodlari yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "**Bolalarda bronxial astmaning komorbid patologiya bilan kasallangan bemorlarda klinik va laboratoriya tadqiqotlari natijalari**" o'z tadqiqotimiz natijalarini tahlil qildik.

Tadqiqotning boshida biz bolalarda BA bilan KP birga rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillarini o'rganib, tekshirilayotgan bolalarning kasallik tarixi bo'yicha to'liq ma'lumotni tahlil qilib, biz BA va KP bilan og'rikan bolalarda uchragan eng muhim xavf omillarini ajratib ko'rsatdik (1-rasm).




1-rasm. BA bilan KP birga rivojlanishini kuchaytiruvchi tibbiy va biologik xavf omillari (RR / OR)

BA va KP bilan og'rikan bemorlarning 70,8% da homiladorlikning patologik kechishi (OR 6,7; RR 1,8), 87,7% da homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida

o'kazgan toksikozlar (OR 8,1; RR 2,4), 83,1% da I-II darajali anemiya (OR 16,1; RR 1,925), 40,8% da homilador bo'lish xavfi bor edi (OR 1,5; RR 1,2). Ekstragenital patologiyani tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, onalarning 80,0% homiladorlik davrida ORK va BA mavjudligi bilan birga qayd etilgan (OR 6,0; RR 1,9), 69,2% (45) nafar onalar surunkali LOR kasalliklari (OR 4,5; RR 1,6) bilan og'rigan. BA bilan og'rigan bolalarning 40,0 foizida tug'ilishning patologik kechishi kuzatildi (OR 6,7; RR 1,3); bolalarning 30,8 foizi asfiksiya bilan tug'ilgan (OR 3,4; RR 1,4); bolalarning homila payti surunkali gipoksiyasi 26,2 foizida qayd etilgan (OR 3,2; RR 1,3), 1 yoshgacha bo'lgan bronxial astma va komorbid patologiyaga ega bolalarda sun'iy ovqatlantirish 53,8% da amalga oshirilgan (OR 3,2; RR 1,4).

Ushbu ma'lumotlar bizga peri- va intranatal davrda patologik xavf omillari bo'lishi BA va KP rivojlanishiga ta'siri sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. BA shakllantirishda irsiy moyillikning katta ahamiyati bo'lib, biz kuzatgan guruhlarining 155 ta oilasini anamnezini batafsil o'rgandik. Allergik kasalliklarga irsiy moyillik BA va KP bilan og'rigan bolalar guruhida nazorat guruhiga nisbatan uch baravar ko'proq 47,7% onalarda va 23,1% otalarda (OR 3,7; RR 1,4) qayd etildi. AK ning ikki tomonlama irsiylanishi esa 23,1% bolalarda (OR 8,7; RR 1,4) aniqlangan. Ona tomondan BA ning irsiylanishi 44,6% (OR 11,3; RR 1,7), ota tomonidan 40,0% (OR 19,3; RR 1,7).

O'rganilayotgan bemorlarda kasallikning og'irligi sezilarli darajada noqulay premorbid fonga va birga keladigan patologiyaga bog'liq bo'lib, BA va KP bilan og'rigan bolalarda quyidagilar aniqlandi: I-II darajali anemiya 73,8% bolalarda (OR 2,5; RR 1,4), raxitning qoldiq ko'rinishlari - 60,0% (OR 4,16; RR 1,5), ortiqcha vazn - 52,3% (OR 13,0; RR 1,7), LOR a'zolarining birga keladigan kasalliklari 83,1% bolalarda qayd etildi (OR 16,1; RR 2,7).




2 - rasm. Bolardagi asosiy klinik belgilarning o'rganilgan guruhlarda uchrash darajasi, %

Eng aniq o'zgarishlar BA va KP bilan og'rigan bolalar guruhida kuzatilib, bolalarning 100,0% (155) holatda kasalxonaga yotqizilgan ota-onalarning asosiy shikoyatlari quruq, nam yo'tal, shuningdek, BA bilan og'rigan bolalarda zaiflik

80,0%, BA va KP bilan og'riqan bolalarda 87,7%, (OR 5,4; RR 2,02), nafas qisishi BA va KP bilan og'riqan bolalarning 100,0 foizida, BA bilan og'riga bolalarning 88,3 foizida kuzatildi (OR 56,0; RR 12,0). Ishtahaning pasayishi BA va KP bilan og'riqan bolalar 95,4% va BA bilan og'riga bolalarning 76,6% (OR 13,8; RR 3,9), uyqu buzilishi BA va KP bilan og'riqan bolalarning 100,0 foizida va BA bilan kasallangan bolalarning 55,0 foizida kuzatildi (OR 27,4; RR 7,5). BA va KP bilan birga rivojlanishida bolalarda yuzaga keladigan asosiy o'rganilgan klinik belgilar darajasining xavfli omillar tahlili 2-rasmda keltirilgan.


BA bilan og'riqan bolalarda IgA konsentratsiyasi $94,4 \pm 1,89$ mg/% gacha va IgG $79,23 \pm 9,02$ mg/% gacha kamaygan va IgM miqdori $120,43 \pm 2,39$ mg/% gacha ortgan.



3 - rasm. Bolalarda gumoral immunitet ko'rsatkichlari kuzatuv guruhlarida guruhlarida, (M±m)


BA va KP bilan og'riqan bolalarda IgA darajasi $72,7 \pm 1,85$ mg/% va IgG $61,63 \pm 4,74$ mg/% gacha kamaydi, IgM miqdori esa $150,37 \pm 2,3$ mg/% gacha oshdi. IgE darajasini o'rganganimizda, bu immunoglobulinning sintezi BA bo'lgan bolalarning barcha uch guruhida ortganligi aniqlandi. IgE tarkibi BA bilan og'riqan bemorlarda 4,1 marta ($213,43 \pm 5,12$ mg /%), BA va KP bilan og'riqan bolalarda me'yordan 6 marta ($312,15 \pm 3,17$ /%) oshdi. BA bilan og'riqan bemorlarda gumoral immunitetni o'rganish natijalari 3- rasmda keltirilgan.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, BA bilan kasallangan bolalarda IL-4 ishlab chiqarish $21,3 \pm 0,34$ ng/ml ga, BA va KP bilan og'riqan bemorlarda $38,62 \pm 1,07$ ng/ml gacha ko'tarilganligini aniqladik. BA bilan og'riqan bolalarda IL-8 tarkibini tahlil qilganimizda, u sezilarli darajada oshdi ($p < 0,01$) $89,54 \pm 2,45$ ng/ml gacha, BA va KP bilan og'riqan bemorlarda $112,5 \pm 2,77$ ng/ml gacha, bu me'yordan 5,6 marta ko'p. BA bilan og'riqan bemorlarda IFNy darajasi 1,6 baravar past bo'lib, $21,64 \pm 0,63$ ng/ml ni tashkil etdi va BAning KP bilan og'riqan bemorlarda mos ravishda NG ga qaraganda uch baravar past ($10,5 \pm 0,53$ ng/ml) edi (P. $< 0,01$ dan $< 0,001$ gacha). TNFa darajasi BA va KP bilan og'riqan bolalarida NG bolalariga nisbatan 3,8 marta yuqori bo'lgan (P $< 0,001$). Sitokin holatini o'rganish natijalari 4-rasmda keltirilgan.




4 - rasm. Tekshirilayotgan guruh bolalaridagi sitokinlarning tarkibi, (M±m)

BA bilan og'riqan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun biz ularning mikroelement holatini tahlil qildik. Biz BA va BA bilan KP birga kechuvchi bolalarda ikkita asosiy guruhidagi natijalarni tahlil qildik va ularni nazorat guruhining natijalari bilan taqqosladik. BA va BA bilan KP birga kechuvchi bolalarning qonidagi mikroelementlarning tarkibi va taqqoslash guruhidagi ma'lumotlar 5 va 6 - rasmlarda keltirilgan.



5-rasm. Tekshirilayotgan guruhlardagi mikroelementlar miqdori, mkg/g




6-rasm. Tekshirilayotgan guruhlardagi mikroelementlar miqdori, mkg/g

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dismikroelementoz barcha BA bilan kasallangan bolalarda kuzatiladi.


Se ($p < 0,05$), Zn ($p < 0,05$) va I ($p < 0,05$) ning sezilarli tanqisligi aniqlanadi. NG bolalari bilan solishtirganda Br ($p < 0,01$), Cr ($p < 0,01$), Fe ($p < 0,05$), Rb ($p < 0,0001$) va Cu ($p < 0,05$) da sezilarli gipermikroelementozlar kuzatildi. Eng aniq dismikroelementozlar Se, Zn, Br, Cr, Fe, I va Cu kabi elementlarda kuzatiladi.

VD tarkibini o'rganganimizda, har uch guruhida VD darajasi normadan past ekanligi aniqlandi. 6-rasmdan ko'rinib turibdiki, BA va KP bilan birga og'rigan bolalarda VD darajasi $15,9 \pm 0,79$ ng/ml gacha sezilarli darajada kamaydi, bu o'rtacha nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan 2,14 baravar past ($34,08 \pm 2,2$ ng/ml; $p < 0,001$), va O'OB va BA bilan kasallangan bolalar bilan solishtirganda ham aniq pastroq bo'lib ($28,15 \pm 1,04$ ng/ml va $20,72 \pm 0,86$ ng/ml, mos ravishda, $p < 0,01$) qayd etilgan (7-rasm).




7 - rasm. Tekshirilayotgan guruhlardagi VD ko'rsatkichlari, ng/ml

BA bilan kasallangan bolalarda spirometrik ko'rsatkichlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, eng aniq og'ishlar BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida aniqlangan (8-rasm). Ushbu guruhdagi Majburiy nafas chiqarish hajmi ko'rsatkichi $64,9 \pm 1,1\%$ ni tashkil etdi, bu O'OB bilan og'rigan bolalar guruhiga ($73,4 \pm 1,04\%$), nisbatan sezilarli darajada 1,13 baravar past edi. BA bilan kasallangan bolalarda esa Majburiy nafas chiqarish hajmi ko'rsatkichi $69,9 \pm 1,9\%$ ni tashkil etdi. BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida Majburiy nafas chiqarish hajmi 1 ko'rsatkichi $54,6 \pm 1,3\%$ ni tashkil etdi, bu O'OB bilan kasallangan bolalar guruhiga qaraganda 1,23 marta ($67,4 \pm 1,3\%$) va BA bilan kasallangan bolalar guruhiga nisbatan esa 1,1 baravar past edi ($60,2 \pm 1,5\%$).



8 - rasm. O'rganilayotgan bolalar guruhlaridagi spirometriya natijalari, (%)

Mikroelement holati ko'rsatkichlari va immunologik parametrlar o'rtasidagi korrelyatsiya munosabatlarining tabiati alohida qiziqish uyg'otadi. Mikroelement va immunitet holatida eng aniq og'ishlar BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida kuzatilganligi sababli, ushbu guruhda korrelyatsiya tahlili o'tkazildi (9-rasm).



9-rasm. BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida mikroelementlar tarkibi va immunitet holati ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari.

Korrelyatsiya tahlili natijalariga ko'ra, BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida 27 ta ahamiyatli korrelatsion bog'liqlik aniqlanib, shundan 7 tasi kuchli ijobiy, 6 tasi esa kuchli salbiy bog'liqlikdir.

Selen eozinofillar ($r=+0,8$) va IL-4 ($r=+0,82$) bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyani ega bo'lib, IgA ($r=-0,69$) va IgE ($r=-0,77$) bilan esa kuchli salbiy, CD8+ ($r=-0,41$) va CD16+ ($r=-0,52$) bilan esa o'rtacha salbiy bog'liqlik mavjud edi. Yod o'rtacha ijobiy bog'liqlikni IgM ($r=+0,52$) va IFN- γ ($r=+0,48$) bilan, o'rtacha salbiy bog'liqlikni esa CD4+ ($r=-0,39$) bilan ko'rsatdi. Temir IgM ($r=-0,91$) bilan kuchli salbiy, IgE ($r=+0,46$) bilan o'rtacha ijobiy va TNF- α ($r=-0,51$) bilan o'rtacha salbiy korrelyatsiyaga ega edi. Rubidiy CD8+ ($r=-0,61$) bilan o'rtacha salbiy, CD16+ ($r=+0,75$) bilan esa kuchli ijobiy bog'liqlik ko'rsatdi. Rux eozinofillar ($r=+0,71$), IgE ($r=+0,73$) va IL-8 ($r=+0,81$) bilan kuchli ijobiy, TNF- α ($r=-0,84$) bilan esa kuchli salbiy bog'lanish ko'rsatdi. Xrom IgG ($r=-0,37$) bilan o'rtacha salbiy, IgE ($r=+0,44$) bilan o'rtacha ijobiy korrelyatsiyaga ega edi. Simob eozinofillar ($r=-0,38$) va CD16+ ($r=-0,39$) bilan o'rtacha salbiy bog'liqlik ko'rsatdi. Brom CD16+ ($r=+0,44$) bilan o'rtacha ijobiy korrelyatsiyaga ega edi. Mis FAN (fagotsitar faollik indeksi) ($r=-0,69$) va IgA ($r=-0,70$) bilan kuchli salbiy, CD4+ ($r=+0,73$) bilan esa kuchli ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatdi. Surma CD16+ ($r=+0,38$) bilan o'rtacha ijobiy bog'lanishga ega edi. Shunday qilib, ME holatini o'rganishning yuqoridagi natijalariga asoslanib, BA bilan kasallangan bolalarda quyidagi ME larning

nomutanosibligi mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin: selen, rux va xrom gipomikroelementlari, shuningdek brom, temir, rubidiy va misning gipermikroelementlari.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mikroelementlarning eng katta nomutanosibligi BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida aniqlanib, natijalar bemor bolalarning tanasida rux, selen, temir va misning ko'proq "harakatchanligini" ko'rsatadi, bu ularning BA da yallig'lanishni amalga oshirishdagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korrelatsion tahlil natijalari bir qator mikroelementlar (Se, Fe, Zn, Cu) ning ba'zi immunologik parametrlari bilan yuqori darajada o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida an'anaviy BA bilan og'rigan bemorlarga qaraganda ancha yuqori va sezilarli darajada qayd etilib, bu ME tarkibi va immunologik parametrlar o'rtasidagi bunday qator munosabatlarning paydo bo'lishi kompensatsion-adaptiv zaxiralarning keskinligini, patologik jarayonning davom etishini ko'rsatadi, bu jarayonning surunkalilashuviga yordam beradi va bolalarda BA rivojlanishi va kechishida diagnostik va prognostik ko'rsatkichlari sifatida ishlatilishi mumkin.

Umumlashtirib aytganda, ushbu bobda taqdim etilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, BA va KP bilan birga og'rigan bolalar guruhida nafas qisilishi, og'iz orqali xirillash, nam yo'tal va o'pkada nam xirillash kabi alomatlar ko'proq davom etishi kuzatiladi. Barcha guruhlardagi bemorlarning rentgenogrammasi, qoida tariqasida, astma uchun xarakterli bo'lgan gorizontalar bilan har ikki tomonda o'pkaning emfizematoz kengayishini ko'rsatadi. Jiddiy bronxospazm mavjud bo'lganda, intoksikatsiya va nafas yetishmovchiligi belgilari yanada aniqroq bo'lib, bu kasallikning uzoq muddatli klinik belgilari bilan namoyon bo'ladi. Bolalarda BA bilan KP birga rivojlanishiga homiladorlik va laktatsiya davrida onaning ovqatlanish xususiyatlari, bolani aralash va sun'iy oziqlantirishga erta o'tkazish, peri- va intranatal davrlarning noqulay kechishi va og'irlashgan premorbid holatlar kuchaytiradi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, BA va KP bilan birga og'rigan bolalarda hujayrali immunitetning barcha tarmoqlarida pasayish kuzatiladi. Doimiy T-immunitet tanqisligi og'ir T-limfotsitopeniya va giposupressiya bilan birga keldi. T-limfotsitlar subpopulyatsiyasining tarkibi sezilarli darajada past edi. Immunoregulyatsion indeksning pasayishi to'liq bo'lmagan immun javobni ko'rsatadi.

VD etishmovchiligi BA va KP bilan birga og'rigan bolalarda klinik ko'rinishiga bevosita ta'sir qilib ularning klinik kechishi yanada og'irlashtirishi spirografiya ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, patogenezning murakkabligi, patologik jarayonlar og'irligi, mikroelementlar va VD etishmovchiligi, shuningdek, immunitetning shikastlanish chuqurligi BA va KP bilan birga og'rigan bolalarni davolashda VD va ME preparatlarini kiritish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchi bobida **"Bolalarda bronxial astma va komorbid patologiyasi bo'lgan bolalarda davolashda kompleks yondashuvning asoslari"** BA va komorbid patologiyalar bilan birga og'rigan bemorlarni davolashda differentsial yondashuvlar asoslanadi. Differentsial terapiya usulini tanlashda biokimyoviy

(mikroelement holati va VD tarkibi), immunologik va funksional parametrlari hisobga olingan. Biz tekshirgan 65 nafar BA va KP bilan birga og'riqan bolalar uchta guruhga bo'lingan.


I guruh (nazorat guruhi) BA va KP bilan birga og'riqan 17 nafar bemorni o'z ichiga olib, barchasi gipoalergik parhez, bronxodilatator terapiyasi, antigistaminlar, antispazmolitiklar, mukolitiklar va balg'am haydovchi, tizimli ferment terapiyasi, antioksidantlar (masalan, aevit va baliq yog'i), simptomatik davolash va fizioterapevtik muolajalarni o'z ichiga olgan bazis terapiya (BT) oldi.

II guruh – BA va KP bilan birga og'riqan 21 bemor, ularda VD miqdori kam va ME holatida kichik og'ishlarga ega edi. Ular BT asosida xolekalsiferol (Akvadetrim preparati) oldilar. Qon zardobidagi VD darajasiga qarab xolekalsiferol buyurilgan. Agar VD darajasi 20-30 ng/ml bo'lsa, u holda 2000 TB, agar 10-20 ng/ml bo'lsa, u holda 3000 TB, agar 10 ng/ml dan kam bo'lsa - bir oy davomida har kuni 4000 TB gacha. Davolash kursini tugatgandan so'ng, bemorlar kuniga 1500 TB profilaktik dozalarga o'tishdi.

